

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR LIRIKASIDA POETIK MAHORAT

Fargʻona davlat universiteti

filologiya fakulteti talabasi

Kamolova Moʻminaxon Murodiljon qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning gʻazalchilikdagi oʻziga xos badiiy-maʼnaviy qarashlari tahlil qilinadi. Shoirning lirik merosi, uning maʼno nozikliklari hamda oʻzbek adabiyoti taraqqiyotidagi oʻrni ilmiy asosda yoritiladi. Gʻazalning badiiy xususiyatlari baytlar talqini orqali ochib beriladi.

Kalit soʻzlar: Zahiriddin Muhammad Bobur, gʻazal, lirik meros, badiiy tahlil, metaforik tasvir, oʻzbek adabiyoti.

Annotation: This article analyzes the unique artistic and spiritual views of Zahiriddin Muhammad Babur in his ghazal poetry. The poet's lyrical legacy, the subtle nuances of his meanings, and his role in the development of Uzbek literature are explored on a scholarly basis. The artistic features of the ghazal are revealed through an interpretation of its couplets.

Keywords: Zahiriddin Muhammad Babur, ghazal, lyrical heritage, artistic analysis, metaphorical imagery, Uzbek literature.

Kirish

Zahiriddin Muhammad Bobur — oʻzbek mumtoz adabiyotining yorqin namoyandalaridan biri boʻlib, uning lirikasida obrazlilik, maʼno teranligi va badiiy topilmalar boyligi alohida ajralib turadi. Bobur sheʼriyati nafaqat ishqiy kechinmalarni, balki inson ruhiyatining eng nozik qatlamlarini, hayot falsafasini ham oʻzida mujassam etadi.

Natija va mulohazalar

Oʻzni, koʻngul aysh ila tutmoq kerak,

Bizni unutqonni unutmoq kerak.

Bu baytda Boburning hayot falsafasi aks etadi: inson g'amga berilib ketmasligi, boshqalar e'tibor bermasa, o'zini qiynamasligi kerak. "Unutqonni unutmoq kerak" misrasi esa g'azalning hikmatona ruhini kuchaytiradi.

Ayshu tarab gulbunig'a suv berib,

G'ussa niholini qurutmoq kerak."

Bu bayt Boburning metaforik tasvir mahoratini ochib beradi. Shoir shodlikni gulbuniga, g'amni esa niholga qiyoslaydi. Bu yerda:

gulbun — hayot quvonchlarining timsoli;

g'ussa niholi — inson ichida asta o'sib boruvchi iztirob va tashvish.

Shoirning fikricha, inson shodlikni parvarish qilishi, g'amni esa quritib tashlashi zarur. Bu boburona ruhiy tarbiya konsepsiyasidir. Boburning falsafiy ruhdagi asarlaridan bo'lib, unda shoir inson ruhiyati, g'am va shodlik muvozanati, hayotning behol omillari haqida fikr yuritadi. G'azalning markaziy mohiyati — ko'ngilni boshqarish, o'zini ovutish, unutganlarni unutish, ichki osoyishtalikni saqlashdir.

Tiyra durur zuhd damidin ko'ngul,

Ishq oti birla yorutmoq kerak.

Bu baytda Bobur tasavvufiy mazmunni poetik tarzda beradi. Zuhd dami — dunyodan uzilish, hayot lazzatlaridan voz kechish ruhiyati. Shoir nazarida bunday holat ko'ngilni "tira", ya'ni zulmatli holga soladi. Shoir ko'ngilga murojaat qilish orqali uni o'ziga hamdard sifatida talqin etadi va unga nasihat qiladi. Bu uslub mumtoz lirikaning muhim xususiyati — xitob san'atidan dalolat beradi. Ko'ngil shaxs sifatida gavdalantiriladi va u bilan shoirning ichki suhbatlari g'azalga falsafiy mazmun bag'ishlaydi. Bobur metafora va tashbehlarni juda puxta ishlatadi: "g'am niholi", "quvonch guli", "ishq o'ti", "ko'ngil tuproq kabi" kabi ifodalar shoirning tasviriy mahoratini namoyon etadi. Bu obrazlar orqali shoir fikrlariga musiqiylik, badiiy chuqurlik va ramziy ma'nolar beradi.

Har nimag'a g'am yema, ko'p turur,

Aysh bila o'zni ovutmoq kerak.

Shoir hayotiy tajribaga asoslanib, g'amning ko'pligini ta'kidlaydi. Bu — Bobur hayotining murakkab kechinmalaridan kelib chiqqan fikrdir. U insonni ortiqcha tashvishlardan tiyilish, o'zini aysh, shodlik bilan ovutishga chaqiradi. Soddaligi bilan ajralib turuvchi bu bayt aslida chuqur hikmatni o'zida mujassam etadi: Hayot g'amdan iborat bo'lsa-da, inson o'zini qo'ldan bermasligi kerak. G'azalning ohangi hikmatona bo'lib, undagi baytlar ko'pincha pandu-nasihat shaklida: "Bizni unutqonni unutmoq kerak." Bu satr o'ziga xos hayot darsidir. Mazkur g'azal Boburning ruhiy-falsafiy lirikasida insonning ichki olamini tasvirlashdagi mahoratini ochib beradi

G'azalda rashk obrazini ifodalashda "tutun", "olov", "shikasta ko'ngul" kabi metaforalar qo'llanadi. Bu obrazlar oshiqlikning mashaqqatli, ayni paytda shirin iztirobga to'la holatini tasvirlaydi.

Bobur lirikasining badiiy xususiyatlari

Yuqoridagi ikki g'azal tahlili shuni ko'rsatadiki, Boburni mumtoz adabiyotda alohida ajratib turuvchi bir necha poetik sifatlar mavjud: Bobur har bir his-hayajonni badiiy obraz orqali ifodalaydi: g'am — nihol, shodlik — gul, ishq — olov, soch — balo, ko'ngil — tuproq, rashk — tutun. Zulflar, ko'ngil, tutun, olov — bularning barchasi ko'p qatlamli ramzlar bo'lib, ularni tushunish o'quvchidan ham estetik idrok talab qiladi. Bobur ishqiy lirika bilan birga falsafiy lirika ustida ham mukammal ijod qilgan. Bu ikki yo'nalishning uyg'unligi shoir lirikasining boyligini ta'minlaydi. Bobur o'z tilidagi sodda, jonli, ta'sirchan so'zlardan foydalanadi. G'azallarida fonetik go'zallik, ohangdorlik va musiqiylik mavjud. Bobur she'riyati — uning o'z hayotiy iztiroblari, sog'inchi, muhabbati, g'am-kulfatlari va orzularining badiiy ko'rinishi.

Xulosa

Zahiriddin Muhammad Bobur lirikasida poetik mahoratning asosiy belgilarini ikki g'azal

misolida ko'rsak, uning ijodi qudratli badiiy tafakkurga, o'ta nozik ruhiy tahlilga va kuchli tasviriylikka tayanadi. Bobur har bir g'azalida o'zining shaxsiy kechinmalarini umumlashma darajasiga ko'taradi va ularni badiiylashtirib, o'quvchiga estetik zavq bag'ishlaydi.

Boburning ishqiy lirikasida nafis tuyg'ular, romantik kechinmalar, mahbuba tasviri markaziy o'rinni egallasa, falsafiy lirikasida ruhiy poklik, sabr, hayot sinovlari, insonning o'zini anglash jarayoni tasvirlanadi. Shoirning poetik mahorati aynan shu ikki yo'nalishning badiiy uyg'unligida namoyon bo'ladi. Shu bois, Bobur lirikasini o'zbek mumtoz she'riyatining eng yuksak bosqichlaridan biri sifatida baholash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.A.Aripova Zahiriddin Muhammad Boburning ilmiy va adabiy merosini o'rganish //
2. Nam DU // <https://orcid.org/0000-0002-5921-6741>
3. A.Aripova Study of the scientific and literary heritage of Zahiriddin Muhammad Bobur // Scientific Bulletin of Namangan State University, 2020
4. Qudratullayev H. Bobur armoni. – T.: —Sharq|| nashriyoti, 2009.
5. Jalilov S. Bobur va Andijon. – T.: —O'zbekiston|| nashriyoti, 1993. – 102 b
6. Zahiriddin Muhammad Bobur ensiklopediyasi. T.: Sharq NMAK BT, 2014.
7. Najmiddin Komilov. Tasavvuf. Birinchi kitob. T.: "Yozuvchi"-1996.3.